

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XODIMLAR VA RAHBAR ESTETIKASI

---

**Xalqaro Nordik Universiteti o'qituvchisi**  
**Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi**

*“Bolalar go'zallik, o'yin, ertak, musiqa, suratlar,  
fantaziya, ijod dunyosida yashashlari kerak”*

*V.A.Suxomlinskiy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining etik va estetik tamoyillari haqida so'z boradi. Ta'lim jarayoni nafaqat didaktik balki estetik hodisadir. Estetik madaniyatni shakllantirish rahbariyat va xodimlardan boshlanadi va butun ta'lim jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Pedagogik kadrlarning estetik qarashlari yangi avlod estetik madaniyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** etika, estetika, muhit, ozodalik, tartib, tabassum, bezaklar, muloqot, professionalizm, pedagogik takt, ochiqlik, shaffoflik, shaxsiy namuna, korporativ madaniyat, jamoa, xodim, rahbar.

**Kirish:** Etika – bu insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar, ijtimoiy javobgarlik va odob-axloq normalarini o'z ichiga olgan sohadir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari va rahbariyati o'z faoliyatida hamkasblar, ota-onalar va bolalar bilan muloqotda yuqori darajadagi etika me'yorlariga rioya qilishi zarur. Estetika esa tashqi ko'rinish, muhitni tartibga solish, maktabgacha ta'lim tashkilotining tashqi va ichki qiyofasini zamonaviy va jozibador holda ushlab turishni o'z ichiga oladi [1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetika – bu nafaqat tashqi jozibadorlik, balki bolalar, ota-onalar va xodimlar uchun uyg'un muhitni yaratuvchi tamoyillar yig'indisi ham hisoblanadi. Estetik madaniyatni shakllantirish rahbariyat va xodimlardan boshlanadi va butun ta'lim jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining emotsional barqarorligini shakllantirishda va ularga motivatsiya berishda estetika asosiy rol o'ynaydi. Xodimlar o'zining tashqi ko'rinishi haqida qayg'ursa, xonalarda tartib o'rnatma va ijobiy munosabatlarni shakllantirsa, shu tashkilotdagi muhit ham qulay va xavfsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar aynan dunyoqarashi shakllanish jarayonini boshidan o'tkazayotgan bir vaqtda, estetik muhit ularning ilhom manbayiga aylanadi.

**Asosiy qism:** Pedagogik estetika deyilganda tarbiyachi va o'qituvchilarning ichki va tashqi qiyofasi go'zalligini nazarda tutamiz. Bundan tashqari estetikani pedagogning barcha faoliyat sohalarida ko'rishimiz mumkin: tashkiliy masalalar, kommunikativ ko'nikmalar, bolalarga mehr ko'rsatish, o'quv jarayoni, nutqi va boshqalar [2]. Shular haqida to'liqroq mulohaza yuritamiz.

#### Xodimlar tashqi ko'rinishi estetikasi

Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari professional tashqi ko'rinishga ega bo'lishi muhim. Qulay, ozoda va chiroyli uniforma tarbiyachining o'z ishiga mas'uliyatli va jiddiy yondoshuviga urg'u beradi. Neytral rangli ish uslubidagi kiyimlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bezak va taqinchoqlardan xavfsizlarini tanlash, pardoz tabiiy ko'rinishi, atir hidi yengil bo'lishi, tirnoqlar va sochlar tartibli bo'lishi shart [3].

#### Muhit estetikasi

Xonalarni bezashda och, ammo ko'zni charchatmaydigan ranglardan foydalanish shinamlilik va tinchlik hissini beradi. Yorqin aksentlar esa rasmlar, dekoratsiyalar, bolalar ijodiyoti namunalari ko'rinishida bo'lishi mumkin. Tozalik va tartib estetikaning ajralmas qismi. Xonadagi har bir narsaning o'z o'rni bo'lishi kerak. Bunda jovonlar, konteynerlar va qutilardan foydalanish mumkin. Interyer buyumlari tabiiy materiallar (ipak mato, yog'och, qog'oz)dan bo'lishi ham maqsadga muvofiq. Bezaklar alohida vazifani ham bajarishiga ahamiyat qaratiladi. Masalan, porovoz ko'rinishidagi devor bezaklari raqamlar bilan to'ldirilishi; daraxt shaklidagi dekoratsiyani fasllarga mos ravishda bolalar bilan birga o'zgartirib turish va hokazo. Har bir xonada yashil burchak bo'lishi talab etiladi. Xonaki o'simliklar

shinamlik yaratadi, havoni tozalaydi, bolalarda tabiatga g'amxo'rlik qilish hissini uyg'otadi. MTT uchun xlorofitum, aloe, fikus kabi chidamli va xavfsiz o'simliklar mos keladi. Bundan tashqari toshbaqa, akvarium baliqlari, to'tiqush kabi jonzoqlar ham bolalarda estetik zavq uyg'otadi.

Kasb kuni, xalqaro bayramlar kabi tadbirlarni tashkillashtirishga jiddiy yondoshish muhim: xonalarni bezatish, kostyumlar tanlash, musiqani moslash kabi ishlar bolalar va ota-onalarda ijobiy taassurot uyg'otadi. Bolalar o'z qo'li bilan chizgan va yasagan ijod mahsullari ko'rgazmalarini tashkil etish tarbiyalanuvchilar muvaffaqiyatlarini hamda o'quv jarayoni xilma-xilligini namoyish etish uchun yaxshi usul. Taklifnomalar, faxriy yorliqlar, tashakkurnomalar chiroyli ishlab chiqilishi esa pedagogning har bir detalga e'tiborli ekanligini ko'rsatadi.

#### Xodimlar o'zini tutish estetikasi

Avvalombor, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi eng muhim va eng go'zal insoniy hislatlarga ega bo'lishi darkor. Mehnatsevarlik, sabr, vijdon, odob, tashabbuskorlik, beg'arazlik, insonparvarlik, erkinlik, mehnatga layoqatlilik va adolat shular jumlasidandir. Bulardan tashqari tarbiyachi muayyan kasbiy, professional, ijtimoiy va psixologik jihatlarni o'zida mujassam etishi juda muhim hisoblanadi (I-rasm).

MTT xodimlari bolalar uchun har doim o'rnak bo'ladilar. Shuning uchun tarbiyachi va enagalar muloyim, sabrli va e'tiborli bo'lishga harakat qilishlari kerak. Bu xususiyatlar jamoada ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir xodim bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan do'stona muloqot qilishi kerak. Ziddiyatli vaziyatlarga yechim topa bilish va salbiy hissiyotlarni jilovlash – tarbiyachilar va rahbar xodimlardan talab etiladigan asosiy ko'nikmalardan biridir. Bolalar kattalar xulq-atvoriga taqlid qiladilar, shu sababli tarbiyalilik va etik normalarga rioya etish orqali bog'cha tarbiyalanuvchilariga namuna bo'lish lozim.

Har qanday ijtimoiy soha vakillari kabi MTT xodimlari ota-onalar va bolalarga o'zlarining do'stona munosabatini ko'rsatish uchun doimo tabassum qilib yurishlari, ko'tarinki kayfiyatni ulashishlari dolzarb ahamiyatga ega.



### *Tarbiyachining psixologik xususiyatlari*

- pedagogik takt
- kreativlik
- pedagogik optimizm
- xayrixohlik
- pedagogik mas'uliyat



### *Tarbiyachining kasbiy xususiyatlari*

- bilim va tajriba
- kuzatish va tahlil qilish
- chiroyli nutq
- texnikalardan samarali foydalanish
- ijodkorlik va tashabbuskorlik

## **I-rasm. Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.**

### Rahbariyat va xodimlar o'rtasida etik munosabatlar

Rahbariyat har bir xodimning shaxsiy chegaralari, fikri va ishini hurmat qilishi kerak. Xodimlar esa, o'z navbatida, subordinatsiyaga rioya etgan holda rahbarning muassasa faoliyatini yaxshilashga qaratilgan qarorlariga hurmat bilan qarashlari lozim. Rahbar qo'l ostidagi xodimlar bilan muammolarni muhokama qilishga, ularning takliflarini tinglashga ochiq bo'lishi muhim. Shu orqali jamoada o'zaro ishonch paydo bo'ladi. Rahbariyat xodimlarning tashabbuskorligi va professional o'sishini rag'batlantirib turishi lozim. Kasbiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi: treninglar, kurslar, seminar, praktikumlar orqali ularning malakasini oshirib borish mumkin. Har qanday ishda muammolar yuzaga kelishi tabiiy hol, ammo ularni ijobiy hal etishni bilish professionallikni ko'rsatadi. Muassasada ziddiyatlarni hal etish mexanizmi va qoidalari ishlab chiqilgan bo'lishi, shu bilan ularning kollektivga salbiy ta'sirini minimallashtirish muhim (I-jadval).

Muloqot madaniyatiga amal qilish, ya'ni qo'pollikka yo'l qo'ymaslik, e'tiborli bo'lish, haddan ortiq nazoratdan tiyilish maqsadga muvofiq. Xodimlar o'z fikrlarini ziddiyatlarga bormasdan, haqqoniy va to'g'ri yetkazishni bilishlari kerak. Tashkilotning maqsadlariga erishish uchun xodimlar va rahbarning birgalikdagi harakatlari talab etiladi. Buning uchun ular bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari, murosaga kelishga tayyor bo'lishlari kerak.

#### Ota-onalar bilan munosabat estetikasi

Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar uchun mutlaqo xavfsiz va professional maskan ekanligini his etishlari lozim. Yoqimli muloqot va iliq munosabat – o'zaro aloqaning asosiy elementlaridandir. Ota-onalar ularning fikri ahamiyatga ega ekanligiga ishonchlari komil bo'lishi uchun doimiy uchrashuvlar, ochiq darslar tashkil etish samarali hisoblanadi. Tadbirlarga taklifnomalar, ota-onalar uchun mo'ljallangan stendlar va e'lonlar estetik chiroyli ishlab chiqilishi kerak. Elektron va bosma materiallar yagona uslubda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Ota-onalar bilan individual uchrashuvlar vaqtida farzandlari haqida iliq so'zlar aytish, asosli maslahatlar berish, ularning emotsional holatiga moslashishga harakat qilish muhim hisoblanadi [3].

#### Rahbarning estetik muhitni shakllantirishdagi roli

Rahbar - kollektiv uchun bosh namuna. Uning imidji, muloqot uslubi, kichik detallarga e'tiborliligi butun tashkilotga o'rnak bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini boshqarishda 4 ta metod ajratiladi: tashkiliy, pedagogik, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik [4]. Ijtimoiy-psixologik metodlar jamoaning pozitiv kayfiyatini ta'minlashga, qadriyatlarni shakllantirishga, ma'naviy-madaniy muhitni yaratishga va pedagoglarning o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilishiga qaratilgan bo'ladi. Shu instrumentlarga tayanib, rahbar qo'l ostidagi xodimlari ishonchini qozonadi, natijada kollektiv uchun qulay ijtimoiy-maishiy shart-sharoit yaratiladi (I-jadval).

Rahbariyat estetika bilan bog'liq an'analarni yaratishi mumkin: yagona uslubdagi uniforma kiritish, tadbirlarga xonalarni bezatish, hashar tashkillashtirish.

Xodimlarni o'qitish, mahorat darslari tashkillashtirish, treninglar o'tkazish jamoa kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi.

**I-jadval.**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv metodlari**

<b>Boshqaruv metodlari</b>	<b>Metodga xos instrumentlar</b>	<b>Ko'zlangan maqsad</b>
<b>Tashkiliy-ma'muriy</b>	Hujjatlar tasdiqlash, buruqlar imzolash, qoidalar ishlab chiqish, instruksiyalar yozish va hkz.	Boshqaruvni tizimlashtirish, vazifalarni mantiqiy izchil bajarish.
<b>Tashkiliy-pedagogik</b>	Konsultatsiya, seminar, mahorat darslari, ochiq darslar tashkillashtirish	Pedagoglar malakasini oshirish, innovatsion ta'lim dasturlari bilan tanishtirish, zamonaviy metodlarni o'rgatish.
<b>Iqtisodiy</b>	Smetalar ishlab chiqish, moddiy rag'batlantirish, iqtisodiy normalarni belgilash va hkz.	Mavjud moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, kelgusi xarajatlarni rejalashtirish.
<b>Ijtimoiy-psixologik</b>	Professional imidj, xodimlar shaxsiy axborotlarini oshkor etmaslik, muhokama va takliflarga ochiqlik, ravon va sodda nutq, maqtov va rag'batlantirishlar va hkz.	Kollektiv ichida ijobiy muhitni yaratish, hamjihatlikni mustahkamlash, o'zaro hurmat, ishonch va do'stona munosabatni shakllantirish.

**Xulosa:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va xodimlari estetikasi – tashkilotning umumiy nufuzi, tarbiyalanuvchilar rivojlanishi va ota-onalar mamnuniyatini belgilab beruvchi muhim jihat. Xodimlarning tashqi ko'rinishi, xonalar bezagi, professional yondoshuv, hamkasblar bilan muomala – bularning barchasi alohida e'tibor va qunt talab etadi.

Estetik muhit bolalar rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Chiroyli va did bilan bezatilgan xonalar, iliq muomala, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish bolalarda didni shakllantiradi, go'zallikni ko'rishga o'rgatadi va kundalik hayotda uni tadbiq etishga o'rgatadi. Estetika maktabgacha ta'lim tashkiloti madaniyatining bir qismiga aylanganida, bolalar tarbiyasi va ta'limi uyg'un tarzda olib boriladi. Pedagogik faoliyatda musiqa, adabiy so'z, tasviriy san'at kabi estetik elementlar mujassam bo'ladi. Ulardan yetarli darajada foydalanish ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligining bir belgisi hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni nafaqat didaktik balki estetik hodisadir. Pedagogik kadrlarning estetik qarashlari yangi avlod estetik madaniyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Rahbar Etikasi Va Estetikasining Boshqaruvdagi o'rni" Berdiyeva N.B. Xalqaro Nordik universiteti "Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasida" o'qituvchisi.
2. «Педагогическая этика и эстетика» Морозова А.С. / [nsportal.ru](http://nsportal.ru)
3. «Профессиональная этика воспитателя детского сада» Молчанова С.В. Энгельс 2019 / [nsportal.ru](http://nsportal.ru)
4. «Дошкольное образовательное учреждение — управление по результатам» Белая К.Ю. Педагогический университет "Первого сентября".